

**G‘O‘ZADA KO‘P MARTALI BEKKROSS DURAGAYLASH
ASOSIDA YARATILGAN OILALARNING SUV TANQISLIGI
SHAROITIDA “UNIB CHIQISHDAN 50 % GULLASH”
GACHA BO‘LGAN DAVRNING SHAKILLANISHI**

¹Mavlanova Nasiba Umarovna q.x.x.f.d.

²Matyakubova Gulnoza Arapbayevna

*Samarqand Davlat vetirinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada g‘o‘zada ko‘p martali bekkross duragaylash asosida yaratilgan oilalarning suv tanqisligi sharoitida “unib chiqishdan 50 % gullash” gacha bo‘lgan davrning shakllanishiga oid tadqiqotlar natijalari keltirilgan va suv tanqisligi bo‘yicha bir qator olimlarning izlanishlariga oid tahlillar bayon etilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, g‘o‘zaning suv tanqisligi (0-1-0) sharoitida bekkross duragaylash asosidagi O-35-36 kombinatsiyasi tegishli ravishda 60,8 kun «unib chiqishi-50% gullash» davri bo‘yicha ajratib olingan oilalar va andoza S-6524 62,1 kun naviga nisbatan erta gullaganligi ko‘rindi va O-35-36 oilasidan ko‘p martali bekkross kombinatsiyalar orasidan tezpishar ashyo sifatida genetik-seleksion tadqiqotlarda boshlang‘ich ashyo sifatida foydalanish mumkin ekanligi isbotlandi.*

***Kalit so‘zlar:** g‘o‘za, suv tanqisligi, tezpisharlik, unib chiqishi-50% gullash, bekkross duragaylash, oila, nav.*

***Аннотация.** В статье представлены результаты исследований по формированию периода от «всходов до 50% цветения» семей, созданных на основе множественной обратной гибридизации хлопчатника в условиях водного дефицита, а также анализ исследований ряда ученых по представлению дефицита воды. По результатам исследования выделена комбинация O-35-36 на основе обратного скрещивания хлопчатника в*

условиях водного дефицита (0-1-0) по сроку «всхожесть-50% цветение» 60,8 дней соответственно. . и модели S-6524 было замечено цветение на 62,1 дня раньше по сравнению с сортом, и было доказано, что его можно использовать в качестве исходного материала в генетико-селекционных исследованиях в качестве материала для быстрого размножения среди многочисленных комбинаций обратного скрещивания от O-. Семья 35-36 лет.

Ключевые слова: хлопчатник, дефицит воды, раннеспелость, всхожесть-50%, цветение, бэккросс-гибридизация, семейство, сорт.

Abstract. This article presents the results of studies on the formation of the period from "germination to 50% flowering" of families created on the basis of multiple backcross hybridization in cotton under conditions of water scarcity, and analyzes of the researches of a number of scientists on water scarcity are presented. . According to the results of the study, the combination O-35-36 based on the backcross hybridization of cotton under water deficit conditions (0-1-0) was isolated according to the "germination-50% flowering" period of 60.8 days respectively. families and model S-6524 62.1 days earlier flowering compared to the variety was seen, and it was proved that it can be used as a starting material in genetic-selection research as a quick-breeding material among multiple backcross combinations from the O-35-36 family.

Key words: cotton, water deficit, early ripening, germination-50% flowering, backcross hybridization, family, variety.

Kirish Jahonning ko‘plab davlatlarida g‘o‘za seleksiyasida yangi navlarni yaratishda, g‘o‘za genofondidagi mavjud har xil namunalarning genetik imkoniyatlaridan keng foydalangan holda, tuproq sho‘rlanishiga, suv tanqisligiga, kasallik va zararkunandalarga bardoshli ko‘plab g‘o‘za navlari yaratilmoqda. Jumladan, AQSh, Hindiston, Misr, Isroil, Pokiston, Xitoy davlatlarida g‘o‘za seleksiyasi sohasida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Turli stress omillar, jumladan tuproq sho‘rlanishi, suv tanqisligi, vertitsellyoz viltga nisbatan chidamlilikni oshirish borasidagi izlanishlar uzluksiz ravishda davom ettirilishi

ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Bu borada g'o'za seleksiyasi genofondidagi mavjud har xil namunalarning genetik imkoniyatlaridan keng foydalangan holda samaradorligini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlarimizda bekkross duragaylash asosida yaratilgan yuqori avlod duragaylari va oilalarining suv tanqisligi (0-1-0) sharoitlarida tezpishrligi o'rganildi. Shuningdek, yuqori avlod duragay va oilalarida asosiy qimmatli xo'jalik belgilarning barqarorlashuvi va shakllanishi taqqosiy tahlil qilindi. Amaliyotda qo'llash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tizmalarning fenologik jihatdan bir xilligi, ularning tahliliga asosiy e'tibor qaratildi.

Mamlakatimiz paxta yetishtiruvchi davlatlar orasida shimoliy mintaqada joylashganligi sababli tezpisharlik borasida qator izlanishlar o'tkazilishi talab etiladi. Bu borada tadqiqotlar olib borgan olimlardan B.P.Straumal ta'kidlab o'tadiki, ikkita ertapisharlik bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan navlarni o'zaro chatishtirganda birinchi avlodda ertapisharlik belgisi bo'yicha geterozis hodisasi yuzaga keladi. Agar bu belgi bo'yicha ota-ona navlari bir-biridan keskin farq qiladigan bo'lsa, F₁ avlodida bu belgi oraliq holda irsiylanadi [1; 256-b.].

Sh.E. Namazov [2; 24-b.] ertapisharlik bilan viltga chidamlilik o'rtasida salbiy bog'lanish mavjudligini aniqlagan. Ertapishar navlar yaratish uchun *G. ssp. mexicanum* bilan S-4727 navini chatishtirib, uning F₃ avlodini qayta (bekkross) S-4727 navi bilan chatishtirish kerakligini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, mamlakatimiz dunyo miqyosida paxta yetishtiruvchi davlatlar orasida eng shimoliy mintaqada joylashgan bo'lib, g'o'za seleksiyasida tezpishar ashyolar yaratilishi talab etiladi [3; 43-45-b., 4; 25-b.]. Tezpisharlik asosiy murakkab poligen belgilardan hisoblanib, bu borada uzluksiz ravishda tadqiqotlar olib borilishi lozim. Shunga ko'ra, tadqiqotlarda ushbu belgiga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqot ob'ekti va uslubi: Tadqiqotning ob'ekti sifatida g'o'zaning *G.hirsutum* L. turiga mansub S-4727, An-Boyovut-2, S-2609, Guliston, Namangan-77, S-9070 navlari ishtirokida yaratilgan bekkross duragaylarning yuqori avlodlari, oila va tizmalaridan foydalanilgan, andoza sifatida S-6524 navidan foydalanilgan. Tadqiqotlarda jalb etilgan kelib chiqishi geografik jihatdan uzoq bo'lgan har xil

genotipga ega nav va namunalarni duragaylashdan olingan oddiy va bekkross duragaylarning irsiylanishi, o'zgaruvchanligi va ular orasidagi korrelyatsion bog'liqliklar o'rganish hamda ularni keng maydonlarda ekish bo'yicha tajribada tadqiqot ob'ektlarining urug'lari Toshkent davlat agrar universiteti Tajriba xo'jaligida, Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti (PSUEAITD)ning PSUEAITning Sirdaryo viloyati dalalarida o'tkazildi. Ilmiy izlanishlar O'zPITida qabul qilingan «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari» (2007) [5;] bo'yicha olib borilmoqda. Barcha amaliy tadqiqot natijalari, belgilarning raqamli ko'rsatkichlari, variatsion-statistik tahlillar B.A.Dospexov (1985) [6; 351-b.] uslubi bo'yicha ishlovdan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi 2024 yilgi tadqiqot natijalariga ko'ra, belgi bo'yicha yuqori avlod bekkross va murakkab kombinatsiyalar suv tanqisligi (0-1-0) sharoitida o'rganilganida bekkross duragaylash asosidagi O-35-36 kombinatsiyasi tegishli ravishda 60,8 kun «unib chiqishi-50% gullash» davri bo'yicha ajratib olingan oilalar va andoza S-6524 (tegishli ravishda 62,1kun) naviga nisbatan erta gullaganligi ko'rindi (1-jadval). Bekkross duragaylash asosidagi bekkross suv tanqisligi (0-1-0) sharoitida O-33-34 oilasi 62,1 kunda gullab, andoza S-6524 navi bilan bir xil natija qayd etildi. Suv tanqisligi sharoitida ajratib olingan oilalar orasidan eng kech gullagan O-37-38 oilasi (62,6 kun) andoza navga (62,1 kun) deyarli teng darajada bo'lganligi kuzatildi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, ushbu belgi bo'yicha ajratib olingan bekkross kombinatsiyalarning barchasi andoza nav darajasida yoki undan ustun ekanligi kuzatildi.

1-jadval

Ko'p martali bekkross duragaylash asosida yaratilgan oilalarning suv tanqisligi sharoitida “unib chiqishdan 50 % gullash” gacha bo'lgan davrning shakllanishi

Oilalar va tizma	M±m	σ	V, %
O-69-70	61,7±0,5	2,1	3,4
O-35-36	60,8±1,1	2,7	4,5

O-37-38	62,6±0,3	1,1	4,8
O-33-34	62,1±1,3	3,1	5,0
O-16-18	60,9±0,6	2,4	3,9
O-19-20	61,0±0,7	2,9	5,0
S-6524	62,1±0,5	2,46	3,9

Xulosa tarzida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, ko‘p martali bekkross kombinatsiyalar orasidan tezpishar ashyo sifatida O-35-36 oilasi genetik-seleksion tadqiqotlarda boshlang‘ich ashyo sifatida foydalanish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Xolmurodova G., Namozov Sh. G‘o‘zaning F₁ - F₂ duragaylarida ayrim xo‘jalik belgilarining irsiylanishi va o‘zgaruvchanligi. O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnika taraqqiyotida olim ayollarining roli: - Toshkent, 2004. –B.256-259.
2. Namozov Sh.E. Xarakter formobrazovaniya v potomstve mejvidovogo gibrida G.thurberi Tod. x G.raimondii Ulbr. pri skreщivanii ix s sortami vida G.hirsutum L.: Avtoref. diss. ... kand. s.- x.nauk. – Tashkent: UzNISSX, 1996. –24 s.
3. Kuryazova Z.B., Ernazarova Z.A., S.M.Rizaeva Skreщivaemost i zavvazyivaemost semyan u vnutri i raznogenных vidov xlorchatnika. //Doklady. AN RUz. –Tashkent, 1998. -№3. -S.43-45.
4. Boboev S.G‘., Namozov Sh. E. G‘o‘zaning genomlararo murakkab va bekkross duragaylarida tola uzunligi belgisining shakllanishi // “G‘o‘za, beda seleksiyasi va urug‘chiligini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslari” nomli Respublika ilmiy-amaliy anjumani to‘plami. – Toshkent: Mehridaryo. - 2009. – B.25.
5. «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari» O‘zPITI. (2007).
6. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta. – Moskva: Agropromizdat, 1985. – 351 s.